


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zglasidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020- yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 3955,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,4 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (25,9 %), savdo xizmatlari (23,0 %), moliyaviy xizmatlar (20,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2020- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3568,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan (387,6 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2020- yil yanvar-iyul oylari davriga nisbatan xizmatlar hajmi (548,1 mlrd. so'mga) ko'paydi.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlarida (142,0 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (128,9 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (119,9 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (32,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	3955,8	102,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	246,2	108,0
moliyaviy xizmatlar	828,0	128,1
transport xizmatlari	1025,5	100,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	554,7	98,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	109,8	95,1
savdo xizmatlari	908,5	95,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	105,4	88,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	198,2	120,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	38,7	73,4
ijara xizmatlari	77,4	83,8
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	111,7	91,0
shaxsiy xizmatlar	141,8	92,4
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	53,8	64,1
boshqa xizmatlar	110,8	87,2

2020- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da



- | | | | |
|---|---------------------------------------|----|--|
| 1 | Xizmatlar - jami | 8 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 | Moliyaviy xizmatlar | 10 | Ijara xizmatlari |
| 4 | Transport xizmatlari | 11 | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 | Shaxsiy xizmatlar |
| 6 | Savdo xizmatlari | 13 | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 | Boshqa xizmatlar |

2020- yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (28,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,0 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (20,7 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2020- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	25,9 %
Savdo xizmatlari	23,0 %
Moliyaviy xizmatlar	20,9 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,0 %
Shaxsiy xizmatlar	3,6 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,8 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,7 %
Ijara xizmatlari	1,9 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,4 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,0 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (25,9 %), savdo xizmatlari (23,0 %), moliyaviy xizmatlar (20,9 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2020- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Transport xizmatlari	1025,5 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	908,5 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	828,0 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	280,7 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	246,2 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	198,2 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	141,8 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	111,7 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	109,8 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	105,4 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1025,5 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (908,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (828,0 mlrd. so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (246,2 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste‘molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko‘rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020- yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari hajmi 908,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 23,0 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo‘lib, uning ulushi 79,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,2 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 7,0 % ni egallaydi.

2020- yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 828,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 128,1 % ni tashkil etdi.

**2020- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy
xizmatlarning tarkibi, % da**



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
61-224-92-15